

## LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR

**Abdurahmonova Gulira'no**

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

**Imamova Gulnora**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

***Annotasiya:** Ushbu maqolada leksik -semantik munosabatlarni tahlil qilish, ularning turlariga qo'shimcha fikr va mulohazalar bildirish, graduonimiya, giponimiya, partonimiyalar haqida umumiy tushunchalar misollar yordamida tahlilga tortilgan*

***Kalit so'zlar:** leksik –semantik munosabatlar, giponimiya, graduonimiya, giperonimik, partonimiya, partonimik, sema va uning turlari*

Tilda leksemalar orasida turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba'zi munosabatlar ma'no asosida mavjud bo'lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud bo'ladi. Shu boisdan leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajraladi

- 1) leksik-semantik munosabatlar;
- 2) leksik-shakliy munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari e'tiborga olinadi.

Leksik birliklar lisonida turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud boladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabatlar ana shunday lisoniy munosabatlardir. Leksik-shakliy munosabatlar sirasida omonimiya (shakldoshlik) va paronimiya (talaffuzdoshlik) hodisalari qaralib, ular bevosita til strukturasiiga daxldor bo'lmaganligi sababli

bizning tahlil obyektimiz sifatida qaralmaydi. Giponimiya-lug‘at boyligidagi leksemalarning pog‘onali (ierarxik) aloqasidan kelib chiqadigan ma’no munosabatlari. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma’no ifodalaydigan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma’no ifodalaydigan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida boladi, bunday aloqa birlashtiruvchi (integral)semalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, lola leksemasining ma’nosi gul leksemasining ma’no tarkibiga kiradi. Xuddi shunday giponimiyaga Hamid Olimjonning “Semurg‘ va Parizod” dostonidan misollar keltiramiz:

Sening yomon dostoning,

Meni tuproq bilan teng,

Qilib uyatga qo‘ydi,

Meni bepichoq sudi

Ushbu parchada tuproq leksemasining ma’nosi yer leksemasining ma’no tarkibiga, kiradi. Shu tarzda davom etamiz;

Yurak bag‘rimni o‘yding,

Meni nomusga qo‘yding

yurak leksemasining ma’nosi tana a‘zolari leksemasining ma’no tarkibiga,

Hovlida bor zo‘r chinor,

Chinor emas u bir or

chinor leksemasining ma’nosi daraxt leksemasining tarkibiga,

Sharti shulkim ot bilan

Go‘yoki qanot bilan

Ot leksemasining ma’nosi hayvon leksemasining ma’no tarkibiga kiradi.

Karnay, surnay chaldirib,

Suyinchilar oldirib

Karnay, surnay leksemalarining ma’nolari cholg‘u asbobi mazmunli ma’no

Tarkibiga kirib giponimik qatorni tashkil etadi.

Baxmal jabduqlar urib,

Suluv qizlarday yurib,  
Arg‘umoqlar chopdilar,  
Yer va ko‘kni yopdilar

Baxmal leksemasining ma‘nosi mato leksemasi tarkibiga, arg‘umoqlar  
leksemasining ma‘nosi esa hayvon leksemasining tarkibiga,

Ilonday chirmashganlar,  
Chirmashib tirmashganlar

Ilon leksemasining ma‘nosi zaharli hayvon leksemasining ma‘no tarkibiga,

Yozib borar qulochin,  
Go‘yo bir buyuk lochin

lochin leksemasining ma‘nosi qush leksemasining ma‘no tarkibiga,

Sher izidan qaytmaydi  
Er so‘zidan qaytmaydi

sher leksemasining ma‘nosi hayvon leksemasining ma‘nosi tarkibiga,

Qush nomli buyuk zot,  
Undagi kumush qanot

kumush leksemasining ma‘nosi metal leksemasining ma‘nosi tarkibiga,

Bunda o‘sgan terak,  
Boshi osmonga yetgan

terak leksemasining ma‘nosi daraxt leksemasining ma‘nosi tarkibiga kiradi.

Graduonimiya leksemalarning ma‘no guruhlari a‘zolarida u yoki

bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning)  
bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh so‘zga nisbatan belgilanadi.

Masalan: «yosh» belgisiga ko‘ra (bosh so‘z ajratib ko‘rsatilgan): buzoq, tana  
g‘unajin, sigir; qiz, juvon, ayol;

“Belgi” dagi darajalanish asosida: chiroyli, suluv, ko‘rkam, zebo; «siljish  
sur‘ati» belgisiga ko‘ra: yurmoq, chopmoq, yugurmoq, yelmoq kabilar. Yana  
yuqoridagi dostonga yuzlanib ushbularni keltiramiz.

Go‘zal qizim omonmi?

Sho‘x yulduzim omonmi?

bunda darajalanish sifatida go‘zal leksemasini olamiz va tartibini quyidagicha keltirib o‘tamiz, chiroyli, go‘zal, suluv

Yigit so‘zga boshladi,

Gapni tizib tashladi

shu tarzda davom etamiz, yigit leksemasining darajalanishi yigit, erkak, chol,

Eldagi navqironlar,

Navqiron pahlavonlar

navqiron leksemasining darajalanishi, yosh, navqiron, keksa

Eshigida so‘nadi,

Otashdan kul unadi

eshik leksemasining darajalanishi, darcha-eshik-darvoza,

Bir zo‘r daraxt ko‘rindi,

O‘shanga ko‘zi to‘ndi

daraxt leksemasining darajalanishi, nihol-ko‘chat-daraxt;

O‘rmonlikka yetishdi,

Shivillab pastga tushdi

shivillab leksemasining darajalanishi, pichirlab, shivillab, gapirib, baqirib,

Qarshi olar edilar,

Nazar solar edilar

nazar solmoq leksemasining darajalanishi: ko‘z tashlamoq, nazar solmoq, tikilib

turmoq, qarab turmoq,

Chirqirashib turadi,

Zo‘r kurashni ko‘rardi

chirqiramoq leksemasining darajalanishi, qichqirmoq, chirqiramoq, baqirmoq

Chumchuqlar chirqirardi,

Bulbul yig‘lab turardi

yig‘lamoq leksemasining darajalanishi: ingramoq,singramoq,yig‘lamoq, o‘kirmoq kabilarni keltirib o‘tamiz.

Partonimiya leksemalarning ma’no guruhlarida butun-bo‘lak munosabatlarining ifodalanishi. Masalan, avtomobil (butun) — kuzov (bo‘lak) - motor (bo‘lak) g‘ildirak (bolak) va b.lar. Yana: uy (butun) - xona (bo‘lak) - ayvon (bo‘lak) — koridor (bo‘lak). Bularda avtomobil (birinchi qatorida) va uy (ikkinchi qatorida) leksemalari bosh so‘zlardir. Ayni paytda kuzov (butun) - eshik (bo‘lak) - yukdon (bo‘lak) - oyna (bo‘lak) - bamfer (bolak) qatorida kuzov leksemasi; xona (butun) - oyna (bolak) — eshik (bo‘lak) qatorida esa xona leksemasi bosh so‘z sanaladi.

Ma’lumki, leksemaning ma’nosida borliqdagi voqea-hodisalarning inson ongidagi in’ikosi ifodalanadi, demak, ma’nolar tizimidagi butun-bo‘lak munosabati negizida ham, aslida, borliqdagi butun-bo‘lak munosabatlarini tilda ifodalash zarurati yotadi. Bunga ham Hamid Olimjonning asarlariga yuzlanamiz:

Eshigida so‘nadi,  
Otashdan kul unadi  
eshik (bo‘lak), uy(butun),  
Boshingga bu Parizod,  
Balolar keltirdi bot  
bosh (bo‘lak),odam(butun),  
Yoshim yetmishga bordi  
Soch-soqolim oqardi  
Soch-soqol (bo‘lak), kishi(butun)  
Biladi juda ko‘p sir,  
Yashar yuz yil-bir asr  
kun, oy, yil (bo‘lak), asr (butun),  
Shartim shuki, ot bilan,  
Go‘yoki bir qanot bilan  
qanot (bo‘lak), qush(butun),  
Har yoqqa xabarchilar,

Tili uzun jarchilar  
til (bo‘lak), jarchi(butun),  
Taajjubda xaloyiq,  
Ko‘ziga yosh oldi jiq  
ko‘z (bo‘lak),  
Boshdan ter quyur edi,  
Oyog‘i kuyur edi  
oyoq (bo‘lak),  
Halqumlari bo‘lib qoq,  
Toqatlari bo‘lib yo‘q  
Halqum (bo‘lak),  
Sari zahar sochardi,  
Ham og‘zini ochar edi  
og‘iz(bo‘lak),  
Tumshug‘ida botmon don  
Ko‘zi ichidagi o‘t  
Tumshuq, ko‘z (bo‘lak),  
Borib dushmaningni top,  
Qilich sol bo‘ynidan chop  
bo‘yin (bo‘lak)  
Shoxi osmonda edi,  
Tirnog‘i qonda edi  
shox, tirnoq(bo‘laklar),  
hayvon (butun) kabilar.

Bu misollarning bosh so‘zlari: uy, odam, asr, qush, jarchi, hayvon kabi leksemalar hisoblanadi va partonimiyaga kiritishimiz mumkin.

Xulosa tarzida shuni aytish lozimki, Tilning lug‘at boyligini tizim (sistema) sifatida o‘rganishda leksemalarning gipo-giperonimik munosabatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega: u tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarning, voqea-

hodisalarning tildagi nomlari bo‘lgan leksemalarning ma’nolarini va shu ma’nolar orqali borliqdagi narsa-hodisalarning o‘zlari haqidagi tushuncha-tasavvurlarni umumlashtirish va farqlash imkonini beradi. Leksemalarning ma’no munosabatlarida darajalanish hodisasining o‘rganilishi ham ko‘p jihatdan ahamiyatlidir: negaki, lug‘at boyligining tizim sifatidagi tavsifini berishda, sinonimlar va antonimlar lug‘atini tuzishda, lug‘aviy birliklarning uslubiy vosita (stilistik figura) sifatidagi qiymatini belgilashda graduonimik tadqiqotlar natijasidan foydalanish mumkin. Partonimiya hodisasini o‘rganish esa lu‘gat boyligi tizimining «sir»larini ochish, so‘z ma’nolarini aniq va to‘g‘ri izohlash nuqtayi nazardan ahamiyatlidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ne‘matov H, Rasulov R Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 108-bet
2. Ne‘matov H, Rasulov R O‘zbek tili sistemasi leksikologiya asoslari T. "O‘qituvchi" 1995. 110-bet.
3. Orifjonova .Sh O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya. NDA. T. 1996.
4. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek-adabiy tili. Ma’ruza matnlari. — Buxoro: «Buxoro universiteti» nashriyoti, 2001, 75—76-b.
5. Narziyeva M. Shaxsni yosh belgisiga ko‘ra atovchi so‘zlar gruppasining ichki klassifikatsiyasi haqida. O‘zbek tilini sinxronik o‘rganish masalalari. - T., 1997
6. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek lili sistem leksikologiyasi. - T.: «O‘qituvchi», 1995. I I 1 - 1 2 3 - b.
7. Qo‘chqo‘rtoyev I. So‘zlarning leksik-semantik to‘dalari haqida. //ToshDU ilmiy asarlari 359- chiqishi. - T.: 1969.
8. Baxtiyor Mengliyev Hozirgi o‘zbek tili "Tafakkur bo‘stoni" nashriyoti. T-2018 170-174-bet